

Xizmatlar sohasi

(dastlabki maʼlumotlar)

2018 yil yanvar-mart

Raqamlar:

- 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi - 1190,1 mlrd. so'm.
- Moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʼati 139,1 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 472,4 ming.soʻmni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Koʻrsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining roʻyxati juda xilma-xil boʻlib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sugʻurta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, viloyatimizda 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 1190,1 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, yashash va ovqatlanish xizmatlarida kuzatilmoqda.

**2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	1190,1	106,0
shahar:		
Termiz	488,9	109,7
tumanlar:		
Oltinsoy	39,7	103,1
Angor	37,8	103,7
Boysun	33,3	103,9
Muzrabot	31,6	103,4
Denov	185,3	104,1
Jarqo'g'on	56,3	104,3
Qumqo'g'on	54,6	103,3
Qiziriq	38,0	103,1
Sariosiyo	52,9	102,8
Termiz	29,2	103,5
Uzun	40,7	103,0
Sherabod	50,3	103,7
Sho'rchi	51,5	103,9

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Termiz shahri (488,9 mlrd.so'm), Denov tumani(185,3 mlrd.so'm), Jarqo'g'on tumani (56,3 mlrd.so'm), Qumqo'g'on (54,6 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Boysun (33,3 mlrd.so'm), Muzrabot (31,6 mlrd.so'm), Termiz (29,2 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.


Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (41,2 %), transport xizmatlari (17,8 %), moliyaviy xizmatlar (11,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,5 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,9 %), shaxsiy xizmatlar (3,3 %) va ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,1 %) tashkil qildi.

2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar tarkibi, % da



Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda xizmat amaliyotida xizmat faoliyatini tashkillashtirishning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari belgilangan.


Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.soq



Xizmatlar sohasida xizmat hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan: kredit kartalari orqali to'lovlar, internet savdo, yangi savdo markazlari, mehmonxonalarining tashkil etilishi, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir.


Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini taqinlamasdan turib respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib boqmaydi.

2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



2018 yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (139,1 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (137,8 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (131,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (107,9 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.


**2018 yil yanvar-mart oylarida
jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da**



Hududlar bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Termiz shahri (41,1 %), Denov (15,6 %), Jarqo'rg'on (4,7 %), Qumqo'rg'on (4,6 %), Sariosiyo (4,4 %) tumanlari egallaydi.

2018 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 472,4 ming so'mga teng bo'ldi. O'qish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 103,9 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahrida - 3392,9 ming so'm qayd etilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,4 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xizmat ko'rsatishning eng past ko'rsatkichi Qiziriq tumanida kuzatildi - 230,3 ming so'm, o'sish sur'ati esa 100,6 % ni tashkil etdi. Bu mazkur tumanda xizmatlar hajmi pastligi bilan izohlanadi.

**Viloyat statistika boshqarmasi Xizmatlar
sohasi statistikasi bo'limi**

Mas'ul: P.Eshboeva

(71) 230-85-85